

NIRMAL VARMANING “BIR KUNLIK MEHMION” HIKOYASIDA “OILA” VA “BEGONALASHUV” MOTIVININGNING QARAMA- QARSHILIGI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7399515>

Tilovmurodova Shamsiqamar

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti
2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: prof., f.f.d., dots. Xodjayeva T.A

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hind adabiyotida “नई कहानी” (“yangi hikoya”) yo‘nalishi asoschilaridan, yangi hikoyaning shakllanishi hamda hind adabiyotiga ta‘siri haqida fikr yuritilgan bo‘lib, modernism yo‘nalishida ijod qilgan Nirmal Varmaning shu yo‘nalishda yozilgan hikoyasi “एक दिन का मेहमान” (“Bir kunlik mehmon”)ning tahlilga olinadi hamda “oila” va “begonalashuv” motiviningning qarama-qarshiligi tahlil qilinadi.

Tayanch so‘z va iboralar: modernism, hind modernizmi, modernistik yo‘nalishlar, Nirmal Varma, Nirmal Varmaning ijodiy merosi, “नई कहानी” (“yangi hikoya”), “नई कहानी” (“yangi hikoya”) yo‘nalishi asoschilari, “एक दिन का मेहमान” (“Bir kunlik mehmon”), “Begonalashuv”, “oila”.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается один из основоположников направления “नई कहानी” («новый рассказ») в индийской литературе, становление нового рассказа и его влияние на индийскую литературу. Анализируется рассказ Нирмала Вармы “एक दिन का मेहमान” («Однодневный гость»), написанный в этом направлении Нирмалом Вармой, творившим в направлении модернизма, и анализируется противопоставление мотивов «семьи» и «отчуждения».

Ключевые слова: модернизм, индийский модернизм, модернистские течения, Нирмал Варма, творческое наследие Нирмала Вармы, основатели

направлений “नई कहानी” («новая история»), направления “नई कहानी” («новая история»), “एक दिन का मेहमान”. («Однажды в гостях»), «Отчуждение», «Семья».

ANNOTATION

In this article, one of the founders of the “नई कहानी” (“new story”) direction in Indian literature, the formation of the new story and its influence on Indian literature are discussed. Nirmal Varma's story written in this direction, “एक दिन का मेहमान” (“One day’s guest”), created in the direction of modernism and the contrast between the motives of “family” and “alienation” is analyzed.

Keywords: modernism, Indian modernism, modernist trends, Nirmal Varma, Nirmal Varma's creative legacy, founders of “नई कहानी” (“new story”), “नई कहानी” (“new story”) direction, “एक दिन का मेहमान” (“One day guest”), “Alienation”, “family”.

Nirmal Varma – yozuvchi, tarixshunos, tarjimon hamda Hindistonning eng buyuk yozuvchilari taqdirlanadigan “Jnanpith” mukofoti sovrindori. Ko’plab tanqidchilar uni “Yangi hikoya” yo’nalishining eng yorqin vakillaridan biri deb hisoblasalar ham¹, yozuvchi ijodini bu uslubdan yiroqda ekanligini bir necha bor takidlagan.² Shubxasiz, yozuvchining yozish uslubini aniq bir yo’nalish yoki oqimga mansub deb aytish mushkul. Jahon adabiyoti bilan yaqindan tanishligi, aql bovar qilmaydigan falsafa bilan birgalikda, Yevropada olgan tajribasi barcha adabiy yo’nalishlarning chegarasini yorib o’tib o’ziga xos oqimga asos solishining asosiy sabablaridan deb hisoblash mumkin. Ijodini roman,esse, hikoya kabi nasriy janrlar boyitgan bo’lishiga qaramasdan, asosiy merosi uning takrorlanmas hikoyalari hisoblanadi. Hikoyanavislikdan boshlangan ijodining boshidayoq modernistik go’yalar asosida qurilgan “begonalashuv” motivi, keyinchalik yozuvchi yaratgan yangi bir oqimga aylandi.

Nirmal Varma ijodiy merosining ahamiyatliligi shundagi – insonning ichki dunyosini butun koinotdagi eng ozod joy deb hisoblashida edi. Tahlilga olingan “Bir

¹ Namvar Singh, Kahani: Nayi Kahani (Story: New Story) (Allahabad: Lok Bharati Prakashan, 2012).

² Nirmal Verma on the Modern Short Story in Hindi.’ Conversations on Modernism: with reference to English, Hindi, and Urdu fiction. Ed. Sukrita Paul Kumar. Interview with Sukrita Paul Kumar. Shimla: Indian Institute of Advanced Studies, 1990. 12–27.

kunlik mehmon” hikoyasi uchinchi shaxs tomonidan tasvirlab berilgan. Bir qarashda, bu shaxs yozuvchining o’zidek tuyiladi. Hikoyada jamiyatning normalari qabul qilolmaydigan daxshatli g’oya kitobxon oldiga qo’yilgan bo’lib, insonning ozodligi - oilaga nisbatan qarama-qarshiligi orqali ochib beriladi. Hikoya davomida yozuvchi yaqqol o’zini voqealar kuzatuvchisi sifatida ko’rsatib kelgan bo’lsa-da, hikoyaning so’ngidagina o’z munosabatini bildiradi. Hikoyada vaqt tushunchasi to’liq bo’lmasada, ammo qisman nisbiy tarzda bo’lib, bosh qahramonning shaxsiyati shakillanishiga aynan qanday turtkilar bo’lganli hikoya yakunigacha mavhum qolaveradi.

Hikoyaning nomi o’zgacha “Bir kunlik mehmon”³ bo’lib, yozuvchining boshqa hikoyalarida umuman takrorlanmaydi. Yozuvchi hikoyaning nomi orqali bosh qahramonning hayotini mehmon ramziga aylantiradi va uni hech qachon mezbon bo’la olmasligini zimndan kitobxonga oydinlashtiradi. Bosh qahramon “kishi”ning butun umrini xuddi mehmondek yashashiga urg’u berilgan bo’lib hikoyani boshida uni mezbon sifatida kutib olib hikoya yakunida birgalikda kuzatamiz.

‘मैं बच्ची से भी मिलने नहीं आ सकता?’

‘इस घर में नहीं, तुम उससे कहीं बाहर मिल सकते हो?’

‘बाहर!’ आदमी ने हकबका कर सिर उठाया, ‘बाहर कहाँ?’

उस क्षण वह भूल गया कि बाहर सारी दुनिया फैली है, पार्क, सड़कें, होटल के कमरे -
उसका अपना संसार - बच्ची कहाँ-कहाँ उसके साथ घिसटेगी?

— Qizim bilan ko’rishishga ham kela olmaymanmi?

— Bu uyda emas, u bilan tashqarida bir joyda uchrashsangiz bo’lmaydimi?

— Tashqarida, — dedi duduqlanib, — qayerda?

Bir zumga unutgandiki, butun dunyo tashqarida yoyilgan, park, ko’chalar, mehmonxona xonalari - uning o’z dunyosi. Qizi uning ortidan qayer-qayerlarga boradi?

Yozuvchi istalgan odam bosh qahramon bo’lishi mumkin, yoki bunga o’xshash insonlarni istalgan joydan topish mumkin degan nazarda bosh qahramonga hech qanday ism sharif qo’ymagan. O’rta yoshlardagi ziyoli kishi qizini ko’rish uchun Angliyaning kichik shaharlaridan biriga tashrif buyuradi. Kishi ajrashgan bo’lib, hikoyada oilasini buzilishiga sabablardan biri ayoliga xiyonati sifatida keltirilgan bo’lsa-da, ammo aslida bu murakkab jumboq hisoblanadi. Xalqaro ilmiy

³ Pratinidhi Kahaniyan-Nirmal Varma.Rajkamal Prakashan Pri. Li., Nai Dilli-110002.1988.p.124.

anjumanlarda qatnashib dunyo kezaigan kishi o'zining hayotida xuddi mehmon hisoblanadi. Kishini qizi quchoq ochib kutib oladi. Qizining otasiga bo'lgan munosabatidan shu aniqki, otasining begonalashuvini allaqachon qabul qilgan, otasini borligicha yaxshi ko'radi.

'सुनो, मैं अगली छुट्टियों में इंडिया आऊंगी - इस बार पक्का है।'

उसे कुछ आश्चर्य हुआ कि आदमी ने कुछ नहीं कहा; सिर्फ बाड़े में खरगोशों की खटर-पटर सुनाई दे रही थी।

'पापा... तुम कुछ बोलते क्यों नहीं?'

'तुम हर साल यही कहती हो।'

'कहती हूँ... लेकिन इस बार मैं आऊंगी, डोंट यू बिलीव मी?...'

"Eshiting, keyingi ta'tillarimda Hindistonga boraman - bu safar aniq." Qizi kishining hech narsa demaganidan biroz hayron bo'ldi; faqat kulbadagi quyonlarning shovqini eshitilardi.

— Dada... nega bir narsa demaysiz?

— Har yili shunday deysan.

— Deyman... ammo bu safar anniq boraman, ishonmayapsizmi?

Uyi kishi qanday tashlab ketgan bo'lsa, xuddi shunday ahvolda bo'lib - o'zgarmagan. Ammo sobiq rafiqasi bilan munosabatlari tubdan o'zgarib ketgan edi. Sobiq ayoli yuqori qavatdan pastga tushganida hikoyadagi obrazlar soni iktaga ortadi: ota, qiz, ona, sobiq turmush o'rtog' va sobiq rafika. Yozuvchi endi besh obraz bilan hikoyani davom ettiradi. Bu kabi elementlar yangi hikoya uslublarida ko'p uchraydi.⁴ Bosh qahramon endi umuman boshqa dunyo "voqeilik" ya'ni qizi va ayolining dunyosiga sho'ngiy boshlaydi. Sobiq rafiqasi uni ochiqchasiga xushlamaydi. U uchun bosh qahramon hayotini barbod qilgan inson hisoblanadi.

उसने एक ठहरी ठंडी निगाह से बाहर देखा। 'मुझे अगर तुम्हारे बारे में पहले से ही कुछ मालूम होता, तो मैं कुछ कर सकती थी।'

'क्या कर सकती थीं?' एक ठंडी-सी झुरझुरी ने आदमी को पकड़ लिया।

'कुछ भी। मैं तुम्हारी तरह अकेली नहीं रह सकती; लेकिन अब इस उम्र में... अब कोई मुझे देखता भी नहीं।'

⁴ Namvar Singh, Kahani: Nayi Kahani (Story: New Story) (Allahabad: Lok Bharati Prakashan, 2012).

"Ayol sokin, sovuq nigoh bilan tashqariga qaradi. "Agar men siz haqingizda ba'zi narsalarni oldindan bilganimda, nimadir qilolgan bo'lardim."

— Nima qilgan bo'larding? Erkakni sovuq titroq chulg'ab oldi.

"Hech narsa. Men siz kabi yolg'iz yashay olmayman, lekin hozir, bu yoshimda ... endi hech kim menga qaramaydi ham."

Xattoki, qizining otasi ekanligi ham muhim emas. Bu nafratning asl sababi xiyonat emas, aksincha sobiq turmush o'rtog'ining umuman oilasidan begonalashuvi edi. Erining sobiq rafiqasiga nisbatan qilgan munosabatidan shu anniqki, ular juda yaxshi yashashganlari hamda kishi ayolini juda yaxshi tushungan va hozir ham ayolining nafratini tushunadi.

'मैंने सोचा था, अब तक तुमने घर बसा लिया होगा।'

'कैसे?' उसने स्त्री को देखा, 'तुम्हें यह कैसे भ्रम हुआ?'

औरत कुछ देर तक नीरव आँखों से उसे देखती रही, 'क्यों, उस लड़की का क्या हुआ? वह तुम्हारे साथ नहीं रहती?' स्त्री के स्वर में कोई उत्तेजना नहीं थी, न क्लेश की कोई छाया थी... जैसे दो व्यक्ति मुद्दत बाद किसी ऐसी घटना की चर्चा कर रहे हों जिसने एक झटके से दोनों को अलग छोरों पर फेंक दिया था।'

— Allaqachon tinib-tinchib ketgan bo'lsangiz kerak, deb o'ylagandim.

"Nima?" U ayolga qaradi. — Bunaqangi firga qayday kelding?

Ayol uni bir muddat sokin ko'zlari bilan kuzatib turdi. "Nega, u qizga nima bo'ldi? U siz bilan yashamaydimi?" Ayolning ovozi na hayajon, na janjal soyasi... go'yo ikki kishi gaplashayotganga o'xshardi, oradan ancha vaqt o'tgach, qandaydir bir voqea bir zarba bilan ularning ikkisini qarama-qarshi qirg'oqqa urib yuborgandek edi.

Jamiyatning asosi hisoblangan oilani buzilishi faqat bir insonni emas, balkim avlodga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jamiyatshunoslar hamda kitobxonlar butunlay bosh qahramonni mas'uliyatsizlikda ayblashi tabiiy holat. Ammo qahramonning erkinlikka bo'lgan qarashlari aksariyat jamiyatning ma'naviy qarashlariga zid keladi. Uning uchun eng erkin maskan uning ichki dunyosi bo'lib, yolg'iz yashasa ham u o'zini erkin his qiladi. Ayoliga nima sababli oilasidan begonalashganini tushuntirib bera olmaydi.

'मैं अकेला रहता हूँ... माँ के साथ।' उसने कहा।'

औरत ने तनिक विस्मय से उसे देखा, 'क्या बात हुई?'

'कुछ नहीं... मैं शायद साथ रहने के काबिल नहीं हूँ' उसका स्वर असाधारण रूप से
धीमा हो आया, जैसे वह उसे अपनी किसी गुप्त बीमारी के बारे में बता रहा हो, 'तुम हैरान हो?
लेकिन ऐसे लोग होते हैं...'

"Men yolg 'iz yashayman... onam bilan", dedi u.

Ayol hayron bo 'lib unga qaradi. "Nima bo 'ldi?"

"Hech narsa... balki men hech kim bilan birga yashashga qodir emasman."

Uning ovozi g 'ayritabiiy darajada yumshoq edi, go 'yo u qandaydir yashirin kasalligi
haqida gapirayotgandek. "Hayratlanyapsanmi? Lekin shunday kishilar bor ..."

Hikoyada yozuvchi oila va erlik g 'oyalarini qarama qarshi qo 'yadi. Hikoya davomida bu motiv bir tekisda davom etsa ham ammo, qizi va sobiq ayoli bilan xayrlashganda, motiv darajasi yana kuchayadi. Ya'niki bosh qahramonning bo 'lingan dunyolari yana o 'zi bilan birga kitobxon hamda yozuvchi uchun noma'lum joyga ketadi.

'मैं चलता हूँ' उसने कहा। पता नहीं, यह बात उसने किससे कही थी, किंतु जहाँ वह बैठी
थी, वहाँ से कोई आवाज नहीं आई। वहाँ उतनी ही घनी चुप्पी थी, जितनी बाहर अँधेरे में, जहाँ
वह जा रहा था।

"Ketdim", dedi u. Uning bu gapni aynan kimga aytganini aytish qiyin, lekin
ayol o 'tirgan joydan hech qanday ovoz chiqmadi. Sukunat kishi yo 'l olgan manzildagi
zulmatdek zich edi.

Bosh qahramonning hayoti allaqachon qaytib bo 'lmas nuqtaga kelib bo 'lgan edi. Qahramon o 'z hissiyotlaridan qochmaydigan, o 'zligini qabul qilib yuksak erkinlikka erishgan odam. Butunlay majburiyatlaridan voz kechmagan faqat farzandi oldida va ilm oldida o 'z vazifalarini bajaradi. Uning real hayotga bo 'lgan munosabati juda nisbiy bo 'lib, hayotdagi eng muhim narsasi oilasidan voz kechish bilan mutloq erkinlikka bag 'ishlangan izlanish yakuniga yetadi.

Yuqorida keltirilgan misollar orqali shuni xulosa qilish mumkinki, yozuvchi begonalashuvi va oilaning qarama-qarshiligini bosh qahramon yaratgan erkin dunyosi orqali ochib bergan. Hikoyaning boshidan oxirigacha bu ikki motiv ziddiyati qahramonlarning yo 'qotishlari va topganlari bilan qiyoslangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Очерки истории литератур Индии: X-XX вв. отв. ред. С.О.Цветкова-СПб.:С.-Петербург.2014.

2. Ҳиндистон адабиётида замонавий йўналишлар ва оқимлар. Ходжаева Т.А.Тошкент – 2012.6.24
3. Pratinidhi Kahaniyan-Nirmal Varma.Rajkamal Prakashan Pri. Li., Nai Dilli-110002.1988.p.124.
4. Namvar Singh, Kahani: Nayi Kahani (Story: New Story) (Allahabad: Lok Bharati Prakashan, 2012).
5. Nagendra.Report on modernity.Modernity and Contemporory Indian Literature.- Simla,.1968.p.425.
6. Nirmal Verma, India. Lettre-ulysses-award.org. Retrieved on 22 May 2016.
7. Nirmal Verma on the Modern Short Story in Hindi.’ Conversations on Modernism: with reference to English, Hindi, and Urdu fiction. Ed. Sukrita Paul Kumar. Interview with Sukrita Paul Kumar. Shimla: Indian Institute of Advanced Studies, 1990. 12–27.